

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLO FAROVONLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Karimov Shoxruxbek

Shavkatboy o`g`li

Oriental universitet magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xitoy, Hindiston va Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida xorijiy modellarning muhim jihatlari ko'rib chiqilib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llari taklif etiladi. Shuningdek, infratuzilma rivoji, moliyaviy inklyuziya, ijtimoiy himoya va kasbga tayyorlash kabi omillar muhim yo'naliш sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Kambag'allik, farovonlik, xorijiy tajriba, infratuzilma, moliyaviy inklyuziya, ijtimoiy himoya, O'zbekiston

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в Узбекистане по снижению уровня бедности и повышению благосостояния населения. На основе опыта Китая, Индии и европейских стран анализируются эффективные международные модели и предлагаются пути их адаптации к узбекским реалиям. Особое внимание уделяется вопросам развития инфраструктуры, финансовой инклюзии, социальной защиты и профессиональной подготовки.

Ключевые слова. бедность, благосостояние, международный опыт, инфраструктура, финансовая инклюзия, социальная защита, Узбекистан

Abstract. This article analyzes the ongoing reforms in Uzbekistan aimed at reducing poverty and improving the well-being of the population. Drawing from the experiences of China, India, and European countries, it explores effective

international models and proposes ways to adapt them to the Uzbek context. Key focus areas include infrastructure development, financial inclusion, social protection, and vocational training.

Keywords. poverty, well-being, international experience, infrastructure, financial inclusion, social protection, Uzbekistan

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida aholining daromadlarini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash maqsad qilingan. Bu borada xalqaro tajriba va amaliyotlardan foydalanish .

1. Kambag‘allikka qarshi kurashning dolzarbliji va uning O‘zbekistondagi holati.

Kambag‘allik – faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni qamrab oluvchi murakkab muammodir. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda taxminan 700 millionga yaqin kishi qashshoqlikda yashamoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kambag‘allikni baholash va unga qarshi kurashning institutsional mexanizmi yaratildi.

2020 yilda O‘zbekistonda birinchi marta rasmiy kambag‘allik darajasi e’lon qilindi va shu asosda kambag‘allikka qarshi kompleks choralar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan ***“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”**da ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan.

2. Xorijiy davlatlar tajribasi: muvaffaqiyatli modellari.

2.1. Xitoy tajribasi. Xitoy so‘nggi 40 yilda 800 millionga yaqin aholining kambag‘allikdan chiqishiga erishgan. Asosiy sabablar:

- Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar va xususiy mulkni kengaytirish
- Infratuzilmani rivojlantirish orqali chekka hududlarni uyg‘un rivojlantirish
- Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari

2.2. *Hindiston tajribasi*. Hindistonda “Digital India” va “Jan Dhan Yojana” loyihalari orqali keng aholi moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olingan va ular quydagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan:

- Kambag‘al aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yordam (naqd pul transfertlari)
- Har bir fuqaro uchun bank hisobi ochish imkoniyati
- Aadhaar orqali shaffof elektron identifikatsiya tizimi kabilarni o‘z ichiga oladi.

2.3. *Yevropa davlatlari*. Skandinaviya davlatlarida ijtimoiy tenglik va farovonlik yuqori bo‘lish uchun.

- progresiv soliq tizimi
- bepul ta’lim va sog‘liqni saqlash
- ishsizlarni qayta o‘qitish dasturlarni qo‘llashimiz kerak.

3. O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlariga quydagilar bilan tanishamiz.

3.1. Qishloq hududlarda infratuzilmani yaxshilashda xitoy modelidagi yo‘l, ichimlik suvi va elektr ta’mintonini rivojlantirishda hamda agrobiznesni rivojlantirish, klaster tizimini takomillashtirish

3.2. Moliyaviy inklyuziya va raqamli iqtisodiyot rivojlaniishda quydagi Hindiston tajribasidagi kabi har bir fuqaroni moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish va ijtimoiy nafaqalarni elektron tarzda adolatli taqsimlashni ko‘rib chiqish

3.3. Ta’lim va kasbga o‘qitish samaradorligi bo‘yicha yevropa tajribasiga asoslangan qayta tayyorlash tizimlarini joriy qilish va ustoz-shogird an’analarini zamonaviylashtirish

3.4. Soliq va ijtimoiy himoya siyosati progresiv soliq tizimi elementlarini sinov tariqasida joriy etish va ijtimoiy yordam tizimlarini avtomatlashtirish muhim omillar hisoblanadi.

Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan amaliy takliflar aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda faqat daromad emas, balki turmush sifati va jamoaviy infratuzilmaga kirish imkonini inobatga olish quydagi muhim omillardan iborat.

– hududiy rivojlanish strategiyalarini yaratish har bir tuman va shaharga mos rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash

– norasmiy ish bilan bandlikni rasmiylashtirish

– soliq imtiyozlari orqali norasmiy sektorni qisqartirish

Yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda mikrokreditlar, grantlar va biznes-inkubatorlar orqali rag‘batlantirish va boshqa omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat uchun kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish masalasi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu yo‘nalishdagi strategik qarorlar va amaliy chora-tadbirlar davlat siyosatining markazida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan so‘nggi yillarda kambag‘allikni baholashning xalqaro mezonlari joriy qilinib, ijtimoiy himoya, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy kasbga o‘qitish kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, kambag‘allikni kamaytirishda xalqaro tajriba va ilg‘or amaliyotlardan samarali foydalanish zarurati yanada ortmoqda.

Xitoy, Hindiston, Skandinaviya mamlakatlari kabi davlatlar misolida ko‘rish mumkinki, kambag‘allikka qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun kompleks yondashuv, aniq strategiya va zamonaviy boshqaruvi mexanizmlari talab etiladi. Ushbu tajribalarni tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitlariga moslab joriy etish — aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli, kambag‘allikni qisqartirishda xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va mahalliy siyosatga tatbiq etish yo‘llarini aniqlash ushbu mavzuni dolzarb va ilmiy-amaliy jihatdan ahamiyatli qiladi.

Xulosa . Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish — ko‘p yo‘nalishli, tizimli va uzoq muddatli harakatni talab etadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘zining sharoitiga mos ravishda xorijiy modellardan

foydalangan holda, mahalliy xususiyatlarni hisobga olib ishlashi kerak. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar ijobjiy natijalar bermoqda. Eng muhimi — aholining ishonchi, faolligi va imkoniyatini oshirish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2023). Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kompleks dastur. Toshkent.
3. Jahon banki (2021). Poverty and Shared Prosperity Report 2020: Reversals of Fortune. Washington, DC: World Bank.
4. United Nations Development Programme (UNDP) (2020). Human Development Report. New York: United Nations.
5. Asian Development Bank (ADB) (2022). Uzbekistan: Country Partnership Strategy 2022–2026. Manila.
6. Ravallion, M. (2016). The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy. Oxford University Press.
7. Deaton, A. (2013). The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. Princeton University Press.
8. Dabla-Norris, E., Kochhar, K., Supaphiphat, N., Ricka, F., & Tsounta, E. (2015). Causes and Consequences of Income Inequality: A Global Perspective. IMF Staff Discussion Note.
9. International Labour Organization (ILO) (2021). World Social Protection Report. Geneva.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2023). Kambag‘allikni qisqartirishda xorijiy tajribalarning O‘zbekiston uchun ahamiyati. Analitik tahlil.

11. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent.
12. Krugman, P., & Wells, R. (2018). Economics. Worth Publishers.
13. Kuzibekov, B. (2021). Kambag‘allikka qarshi kurashda infratuzilmaviy rivojlanishning o‘rni. // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnalı, №4.